

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'IIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



OZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI
ABDULLA QAHHORNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI
FANI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Guliston-2024

| | |
|--|--|
| Fanning nomi | Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati |
| Fan/modul kodi | AQHM2705 |
| Fan/modul turi | Tanlov |
| O'quv yili | 2027/2028 |
| Fan semestri | 8 |
| Ta'lim tili/turi | O'zbek/kunduzgi |
| Fanga ajratilgan soat/kredit | 150/5 |
| Auditoriya soat/kredit | 60/2 |
| Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat/kredit | 90/3 |

I. FANNING MAZMUNI

Fanni maqsadi: XX asr adabiyoti taraqqiyotidagi muhim bir bosqich 20-60-yillarda ijod qilgan yozuvchilarning katta bir avlodi haqidagi tasavvurlarni yanada chuqurlashtirish. Bu jarayonda talabalarning diqqatini adabiyotdagi eng ommaviy janrlardan biri – hikoyachilikning taraqqiyot yo'liga jalb etish. Atoqli adib, mohir hikoyanavis A.Qahhorning shu nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda hikoyalari tahlil qilish.

Fanning vazifasi:

A.Qahhorning hikoyalari yozuvchi mahorati bilan bog'lab o'rganish. Bunda yozuvchi ijodida mavzu tanlash, zamonaviylik, uslub, xarakter yaratish, badiiy dalillash kabi masalalar aspektida ko'rib chiqiladi.

II. ASOSIY NAZARIY QISM

(Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

| № | Modul nomi | Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular | Amaliy mashg'ulot bo'yicha mavzulari | Seminar mashg'ulot bo'yicha mavzulari | Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari |
|---|---|---|--|--|---|
| 1 | 1-mavzu. A.Qahhor ijodining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rni | A.Qahhor ijodining XX asr o'zbek adabiyotida o'rni borligi. A.Qahhor mansub avlodning adabiyotdagi xizmatlariga umumiy ta'siri, adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan ulushida A.Qahhorning o'rni. | A.Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasi tahlili | O.Sharafiddin o'vning "Abdulla Qahhor" kitobida yozuvchining hikoyalari doir bildirilgan fikrlar | A.Qahhorning hikoyachilikdagi ilk izlanishlarini umumlashtirgan holda tahlil etish. |
| 2 | 2-mavzu. A.Qahhor hikoyalari mavzu rang-barangligi | A.Qahhor hikoyalari mavzu jihatdan dolzarb mavzuning ahamiyati. Mavzu va yozuvchi mahorati bog'liqligi. A.Qahhor o'z hikoyalari murojaat qilish keyingi davrlardagi ahamiyati.A.Qahhorning o'tmish mavzusidagi hikoyalari bugungi kun | "Mayiz emagan xotin" hikoyasi tahlili | M.Qo'shjonovning "Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor" kitobidagi yozuvchining hajviy hikoyalari doir mulohazalar | Yozuvchining o'zbek ayollarining paraji tashlashi bilan bog'liq voqealar aks etgan asarlarini yaxlit holda o'rganish. |

| | | | | | |
|---|---|--|-------------------------------|---|--|
| | | ko'zgasida. Hikoyalarning muayyan qismi o'tmish hayotga bag'ishlanganligi. | | | |
| 3 | 3-mavzu. A.Qahhornig zamonaviy mavzudagi hikoyalarda mahorat masalasi | A.Qahhorning hikoyanavislik faoliyatida zamonaviy hikoyalarning o'rni. Zamonaviy mavzudagi hikoyalardagi hayotning, axloqiy muammolarning ko'rsatilganligi, bu yo'nalishda. | "Tomoshabog" hikoyasi tahlili | A.Qahhor hikoyalari haqida U.Normatov fikrlari. | "O'g'ri" hikoyasidagi bosh qahramon obrazi talqinida ruhiy holat tasviri masalasi. |
| 4 | 4-mavzu. A.Qahhornig urush mavzusidagi hikoyalarda uslub masalasi | A.Qahhorning hikoyachilik faoliyatida urush mavzusi muhim o'rin tutishi. Hikoyada tasvirni xolis nigohda berish masalasi. Shu yo'nalishda "Asror bobo" va "Xotinlar" hikoyalari tahlili. A.Qahhorning hajviy hikoyalarda mahorat masalasi. | "Anor" hikoyasi tahlili | A.Qahhor hikoyalarda xotin-qizlar obrazlari. | Bemor" hikoyasida hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishida yozuvchi mahorati masalasi |
| 5 | 5-mavzu. A.Qahhor hikoyalarda ma'naviy-axloqiy muammolaring qo'yilishi | A.Qahhorning ma'naviy-axloqiy muammolar yo'nalishidagi qator hikoyalari mavzu muammolar.A.Qahhor hikoyalarda hayotiylik masalasi. A.Qahhorning aksariat hikoyalarning asosida hayotda bo'lgan voqea bilan hayotiylikning mutanosiblikning yozuvchining o'zi tomonidan bildirilgan fikrlari | "O'g'ri" hikoyasi tahlili | Qahhor hikoyalarda bosh qahramon masalasi | "Dahshat" hikoyasida badiiy detal qo'llash mahorati |
| 6 | 6-mavzu. A.Qahhor hikoyalari da badiiy dalillash masalasi | A.Qahhor hikoyalarda har bir tasvir chuqur dalillanishi. Bunda tasvirdagi ikki xalqaning bog'lanishi. Bu masalada yozuvchi ijodiga doir tanqidiy fikrlar va ayrim tanqidchilarning (H.Karimov) munosabatlari. | "Asror bobo" hikoyasi tahlili | A.Qahhor hikoyalarda badiiy detal masalasi. | "Qizlar" hikoyasida muallif nutqi. |
| 7 | 7-mavzu. A.Qahhor | A.Qahhorning badiiy asar tiliga alohida e'tibor | "Mahalla" hikoyasi | A.Qahhor hikoyalari | "Qizil konvert" hikoyasining |

| | | | | | |
|----|--|--|---|--|---|
| | hikoyalari tili | berishi. Yozuvchilikning turli munosabatlari bilan umumiy boyliklari, shu jumladan badiiy til haqida. A.Qahhor hikoyalarida yozuvchining soʻzdan foydalanish mahorati | tahlili | poetikasi | gʻoyaviy talqini |
| 8 | 8-mavzu, A.Qahhor hikoyalarida dramatik tasvir muammosi | Hikoyaning tabiatida dramatik tasvirga moyillik. Drama va hikoya janrlarning oʻzaro ichki yaqinligi. Hikoyalardagi dramatik tasvirning oʻziga xosligi. | “Adabiyot muallimi” hikoyasi tahlili | A.Qahorning yumoristik hikoyalarida soʻz qoʻllash mahorati | “Botirali” hikoyasida qariyalar obrazlari |
| 9 | 9-mavzu. A.Qahorning oʻtmish mavzusidai hikoyalari bugungi kun koʻzgasida | Hikoyalarning muayyan qismi oʻtmish hayotga bagʻishlanganligi. Shoʻrolar davriga oʻzgacha munosabat. Mustaqillik davrida hikoyalarga nisbatan ayrim notoʻgʻri munosabatlar. | “Toʻyda aza” hikoyasi tahlili | Xotinlar” hikoyasida ayollar obrazi | “Millatchilar” hikoyasi gʻoyaviy yoʻnalishi |
| 10 | 10-mavzu. A.Qahhor hajviy hikoyalarida mahorat masalasi | A.Qahorning hajviy xarakter yaratilgan hikoyalarida kinoyali tasvir usuli. Bunda yozuvchi mahorati ahamiyati. Salbiy xarakter yaratishda A.Qahorning hajviy hikoyalarida yechimning oʻziga xosligi | “Qizil konvert” hikoyasining gʻoyaviy talqini | “Mayiz emagan xotin” hikoyasida muallif nutqi | “Qizlar” hikoyasida muallif nutqi |

III. Fanni oʻqitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni oʻzlashtirish natijasida, talabalar quyidagi koʻnikmalarga ega boʻladi:

- A.Qahorning hikoyanavislik mahorati fani boʻyicha bakalavr talaba hikoya janrining genezisi bilan bogʻliq muammolar, zamonaviy milliy realistik qissa vujudga kelishida oʻzbek mumtoz hikoyachiligi hamda jahon adabiyotining oʻrni va ahamiyatini aniqlashi kerak. Shuningdek, mumtoz hikoyalarning oʻziga xos xususiyatlari, zamonaviy hikoyachilikning vujudga kelish sabablari, adabiy taʼsir, ijodkor shaxsi masalasini oʻrganishi lozim (**bilim**);

- ushbu fan doirasida talaba hikoyalardagi konkret asarda janr parametrlarini tayin etish bilan yozuvchi gʻoyaviy-estetik ideallarining uygʻunligi, kompozitsiya – shakl va mazmun birligi namunasi sifatida talqin eta bilishi kerak. Adabiyotshunoslik nazariyasining tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bogʻliqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik mohiyatini, badiiy asar tili, poetik nutq va uslubiy individuallik masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi lozim (**koʻnikma**);

- shuningdek, nazariy bilim olgan bakalavr talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtai nazardan talqin va tahlil etish, badiiy adabiyot va sanʼatning

mazmun-mohiyati bo'yicha adabiy suhbatlar o'tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (**malaka**).

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

VI. Asosiy adabiyotlar:

1. O'ljaboyev U. A.Qahhor saboqlari. Ziyo, 2013 y.
2. O'ljaboyev U. Urush davri o'zbek hikoyachiligi. Ziyo, 2004 y.
3. O'ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. Ziyo. 2009 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:


1. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. –T., “Yosh gvardiya”, 1988 y.
2. Qo'shjonov M. A.Qahhor mahorati sirlari. –T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989y.
3. Qo'shjonov M. A.Qahhor ijodida satira va yumor. –T., “Fan”, 1973y.
4. O'ljaboyev U. O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari. –T., 2003y.
5. Qosimov U. Yozuvchining sirlari. –T., “Xazina”, 1995y.

Axborot manbalari

1. <http://natlib.uz> – A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> - O'zbekiston Milliy ensiklopediya
3. <http://ziyouz.uz> – O'zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> - O'zbekiston milliy ta'lim portal
5. <http://www.infolib.uz> – Pespública Axborot kutubxona markazi

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sul:

A.To'yehiyev – Guliston davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) 

Taqrizchilar:

I.Yoqubov – A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori

Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna – O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori